



BOSHLANG'ICH SINIF "TABIY FAN" DARSLARIDA O'QUVCHILARNING KREATIVLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Toxirova Moxichexrabonu Xoshimjon qizi

Pedagogika kafedrası o'qituvchisi

Asranova Ziyodaxon Sodiqovna

Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 3-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga Tabiiy fan darslari qay darajada tushunariligi hamda darslikning mukammalligi haqida yoritilgan.

Kalit so'z: "Tabiiy fan" darsligi, o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari, qobiliyat, muloxaza, tasavvurlarini oshirish.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirish uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lish kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari XXI asr ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi.[3]

Kreativlik (lot, ing. "create"- yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) individning g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil belgi sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini anglatadi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqatida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zexni o'tkirlilikni tavsiflaydi. Shuningdek kreativlik iqtidorning muxim omili sifatida aks etadi. Amerikalik psixolog P.Torrens fikricha, kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazlarni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida



muammoni aniqlash; muammoni yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi.

Kreativ fikrlash ta'siri butun jamiyatga sezilarli innovatsiya turlarining ortida turishi rost, lekin u ayni damda universal va tenglashtiruvchi xususiyatga ega fenomen hamdir, ya'ni har qanday shaxs, u yoki bu darajada, kreativ fikrlash qobiliyatiga ega. Darhaqiqat, ta'lim sohasidagi mutaxassislar va psixologlarning fikriga ko'ra, ijodiy faoliyat bilan bog'liq fikrlash jarayonlarida mashg'ul bo'lish deb tushunilgan kreativ fikrlash bir qator boshqa shaxsiy ko'nikmalarning ham rivojlanishiga olib keladi. Shular jumlasiga metakognitiv qobiliyat, insonlar bilan muomala qilish va shaxsning o'zini yaxshiroq anglash ko'nikmalari, muammoni hal etish ko'nikmalari kiradi. Ustiga-ustak, shaxs kamoloti, ta'lim olishdagi muvaffaqiyati, kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va jamoatchilik orasidagi obro'si ham insonning kreativ fikrlash ko'nikmasiga bog'liq.

Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining xayoli va qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi: ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Shaxsning ijodiy fikrlay olish qobiliyatining eng keng tarqalgan ko'rsatkichi – bu ko'pincha g'oyaviy sermahsullik deb ataladigan, inson ishlab chiqishga qodir bo'lgan g'oyalar miqdoridir. Darhaqiqat, g'oyaviy sermahsullik shaxsning ijodiy faollikka moyilligini aniqlashda eng ko'p ishlatilgan o'lchamdir.

Kreativ yondashuv va yutuqlar dunyo bo'ylab fan va texnologiyadan tortib, falsafa, san'at va gumanitar fanlar kabi turli sohalarda insoniyat tamaddunini ilgari surgan. Demak, kreativ fikrlash shunchaki tasodifiy g'oyalar berishdan kattaroq narsadir. U insonga ba'zan murakkab sharoitlarda, yanada yaxshiroq natijaga erishishga imkon



beruvchi bilim va tajribaga asoslangan real ko'nikmadir. Butun dunyoda jamiyatlar va tashkilotlar muammolarni hal etishda innovatsion bilim va yaratuvchanlikka tobora ehtiyoj sezmoqdalar, bu esa, o'z navbatida, ish bo'lgan innovatsiya va kreativ fikrlash ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Kreativ fikrlash bugungi yoshlar ega bo'lishi kerak bo'lgan muhim ko'nikmadir. Bu ko'nikma ularga doimiy tarzda va shiddat bilan o'zgarayotgan, oddiy savodxonlikdan tashqari «XXI asr» ko'nikmalariga ega ishchilarni taqozo etayotgan dunyoga moslashishga ko'maklashadi. Umuman olganda, bugungi o'quvchi kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatiy yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. Maktabda kreativ fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati faqatgina mehnat bozori bilan cheklanmaydi. Maktab yoshlar uchun o'z qobiliyat va ko'nikmalarini, shu jumladan ijodiy talantlarini kashf etishda muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, kreativ fikrlash o'quvchilarning ta'lim olishini hodisalar, tajribalar xatti-harakatlarni yangicha va shaxsan mazmunli usulda talqin etish orqali qo'llab-quvvatlaydi. O'quvchining xayoli va qiziquvchanligi ta'lim jarayonida qo'l keladi: ijodiy fikrlash shu tariqa o'zaro kelishuvchanlik vositasiga aylanadi, hattoki avvaldan belgilangan ta'lim maqsadlari kontekstida ham. Maktabda o'quvchining motivatsiyasi va qiziqishini oshirish uchun, barcha o'quvchilarning ijodiy salohiyati va shijoatini hisobga oluvchi ta'limning yangi shakllari yo'lga qo'yilishi zarur. Bu ayniqsa ta'lim jarayoniga unchalik qiziqish bildirmayotgan o'quvchilarga yordam berishi mumkin va ular o'z fikrini ayta olishiga, salohiyatini ochishiga xizmat qiladi.

Shaxsning ijodiy fikrlay olish qobiliyatining eng keng tarqalgan ko'rsatkichi – bu ko'pincha g'oyaviy sermahsullik deb ataladigan, inson ishlab chiqishga qodir bo'lgan g'oyalar miqdoridir. [2]



Boshlang'ich ta'lim professional ta'limning eng dastlabki tamal toshi bo'lib hisoblanadi. Bolalarga boshlang'ich ta'lim berish o'qituvchidan birmuncha mehnat, salohiyat talab etadi. Hozirda kichik maktab yoshidagi bolalarni o'qitishda yangidan yangi texnologiyalar sinovdan o'tyapdi. "Yangi avlod" darsliklari yaratildi va shu asosda xalqaro ta'lim dasturiga o'tildi. Ayrim fanlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Bularning hammasi bolalar sifatli ta'lim olishi uchun tadbqiq etildi. Hozir biz "Yangi avlod" darsliklari turkumiga kiruvchi "Tabiiy fan" darsligiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Endilikda barcha umumta'lim maktablarida 1-6-sinflar uchun mo'ljallangan hamda bir nechta fan: kimyo, geografiya, biologiya va fizika fanlarining boshlang'ich tushunchalarini o'zida birlashtirgan Tabiiy fanlar darslari yo'lga qo'yiladi. Ta'lim tizimida shu vaqtga qadar Science fani xususiy maktablar hamda Prezident maktablarida o'qitib kelinayotgan edi. Endilikda barcha umumta'lim maktablarida bir nechta fan: Atrofimizdagi olam, Tabiatshunoslik, Geografiya, Biologiya hamda Fizika fanlarining boshlang'ich tushunchalarini o'zida birlashtirgan Tabiiy fanlar darsligi o'qitiladi. Umumiy o'rta ta'limning 1-6-sinflari uchun mo'ljallangan Science fani bir nechta fanlarni birlashtirgan va STEAM tizimi asosida ko'plab ijtimoiy, iqtisodiy fanlar bilan integratsiyani ta'minlagan. Ushbu darslikning quyidagi ustuvorliklari mavjud: bilim va ko'nikmalarni spiralsimon usulda oddiydan murakkabga tomon rivojlantirib borish ko'zda tutilgani hisobiga o'quvchilarga olamning yaxlit, ajralmas, bir butunligini anglashga yordam beradi;

yaratilayotgan darslikka har bir bobning mavzusidan kelib chiqib, sodda kundalik turmushda uchraydigan qiziqarli mavzular, tajribalar kiritildi. Endi bolalar "O'quv loyihasi" deb nomlangan amaliy mashg'ulotda o'zlari kichik tajribalar o'tkazib ko'rishadi. Masalan, 1-sinflarga 1 o'quv yili uchun 1 ta amaliy topshiriq, gul ekish va uni parvarishlash vazifasi berilgan. O'quvchilar o'zlari ekan guldagi o'zgarishlarni yil davomida kuzatib, natijani daftarlariga qayd etib boradilar, ustozlari va sinfdoshlari bilan o'rtoqlashadilar; an'anaviy yondashuvga asoslangan darsliklarda avval matn, keyin savollar berilgan bo'lsa, Science darsligida o'quvchining mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish maqsadida avval savollar berilib, keyin matn keltirilgan. Ma'lumotlarning



aksariyat qismi esa matn emas, rasm yoki illyustratsiyalar ko'rinishida. Bu bolalarda har xil manbalarni tushuna olish, mavzuga ijodiy yondashish ko'nikmasini shakllantiradi.

Bu darslik o'quvchilarga dunyoni yaxlit holda anglashga imkon yaratadi. Bu fanda butun atrof-muhitga, yer-u koinotga tegishli ma'lumotlar bilimlar bir-biriga bog'liq tarzda tushuntirilib o'tilgan. Kitob mutlaq yangi texnologiyalar asosida rasmi, grafikli formatlarda yaratilgan. Har bir mavzudan keyin mustahkamlash uchun qiziqarli mashg'ulotlar berilgan. Misol tariqasida 2022-yilda nashrdan chiqqan 3-sinf " Tabiiy fan " darsligining 1-bobi "Tabiat" deb nomlansa , 2-bobi "Tirik organizmlar" deb nomlanib jamiki yashovchi orzanizmlar haqida sodda, qisqa, lo'nda faktlar keltirilib o'tilgan. Quyida 3-sinf "Tabiiy fan " darsligining 2-bobiga tegishli mavzu keltirildi:

4-MAVZU: TIRIK ORGANIZMLARNING XILMA-XILLIGI

1. Tirik organizmlar yashashi uchun nimalar zarur?
2. Tirik organizmlar qanday guruhlarga bo'linadi?

O'simliklar quyosh nuri ta'sirida oziq modda hosil qiladi. Quyon o'simlik bilan, bo'ri quyon bilan oziqlanadi.O'simlik va hayvonlar o'zaro oziq zanjiri orqali bog'lanadi.Nafas olish jarayonida tirik organizmlar havodan kislorod yutib, karbonat angidrid chiqaradi. Atrofimizdagi olam jonsiz va jonli tabiat (tirik organizmlar)ga ajratiladi. Tirik organizmlarga o'simlik va hayvonlar, jonsiz tabiatga suv, havo, quyosh, shamol, tog' kiradi. Ular o'zaro bir-biriga ta'sir ko'rsatadi. JONLI o'simlik va hayvonlar - JONSIZ suv, havo, quyosh tirik organizmlarning yashashi uchun suv, havo va oziq zarur.

Ochiq urug'li o'simlik, gulli o'simlik, umurtqali hayvon, umurtqasiz hayvon Tirik organizmlar tanasining asosiy qismini suv tashkil etadi. Suvga bo'lgan talabni qondirish uchun tirik organizmlar suv iste'mol qiladi. Ayrim organizmlar uchun suv yashash muhiti hisoblanadi.[2]

Biz yuqorida keltirib o'tgan mavzu orqali ham darslikning tuzilish strukturaviy ko'rib olishimiz mumkin. Dastlabki ko'nikmani o'quvchilarning o'zlari fikrlab olishsin deb birinchi o'rinda savol berigan, keyin asta-sekinlik bilan mavzuga kirishilgan. Dastlab ko'pchilik biladigan sodda ma'lumotlar, keyin o'quvchilar hali bilmagan, yangi ma'lumotlar berilib o'tilgan. Undan so'ng mavzu yanada tushunarli bo'lishi uchun tabiatni



ikkiga ya'ni jonli va jonsiz tabiatga bo'lib tushuntirilgan. Bu strukturaviy yo'nalish bolalar ongida yaxshi saqlanadi. Undan so'z mavzuni umumlashtirish uchun kalit so'zlar keltirilgan, bu esa bir so'z orqali butun ma'lumotni takrorlab olishga va esda saqlab qolishga juda katta yordam beradi. Tirik organizmlar xilma-xilligi" mavzusida umumiy qisqa ma'lumot berilgan bo'lsa, undan keyingi mavzularda har bir tur alohida tavsiflanadi. Hayvonlarning xilma-xilligi, hasharotlarning xilma-xilligi, o'simliklarning xilma-xilligi kabi. Bu orqali mualliflar o'quvchilarning kreativ fikrlashini rivojlantirish ko'zda tutganlar va bularning hammasi kelgusi avlodning yanada bilimli, yanada salohiyatli bo'lishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kun.uz sayti
2. G.S. Narzullayeva "Kreativ fikrlash"
3. Z. B. Sangirova, K. T. Suyarov, Z. Y. Tillayeva, M. M. Avezov, M. X. Baymuratova, S.G'. Xasanova. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi nashrga tavsiya etgan. Yangi nashr. Toshkent – 2022